


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 550,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.




2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>12 854,1</b>	<b>15 550,7</b>	<b>106,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 494,0	15 226,7	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	360,1	324,0	107,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>12 494,0</b>	<b>15 226,7</b>	<b>106,2</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 901,1</b>	<b>3 316,2</b>	<b>103,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 018,8</b>	<b>3 566,0</b>	<b>107,0</b>
sanoat	2 289,2	2 753,2	106,3
qurilish	729,6	812,8	109,3
<b>xizmatlar</b>	<b>6 574,1</b>	<b>8 344,5</b>	<b>107,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 108,6	1 341,5	110,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 066,5	1 371,6	113,6
boshqa xizmat tarmoqlari	4 399,0	5 631,4	104,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 686,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 % ga yuqoridir.

**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming soʻmda)**



**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning oʻsish surʼatlari (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**





2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023-yil	2024-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,2	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2,8	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>23,2</b>	<b>21,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>24,1</b>	<b>23,4</b>
sanoat	18,3	18,1
qurilish	5,8	5,3
<b>xizmatlar</b>	<b>52,7</b>	<b>54,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,9	8,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,5	9,0
boshqa xizmat tarmoqlari	35,3	37,0

**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**


2024-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,8 % ni, sanoat tarmog'i 18,1 % ni, qurilish 5,3 % ni va xizmatlar sohasi 54,8 % ni tashkil qildi



**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,8 %), sanoatda – 106,3 % (18,1 %), qurilishda – 109,3 % (5,3 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (54,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,7 % (8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,6 % (9,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (37,0 %) iborat bo'ldi.




■ 2023-yil  
■ 2024-yil

YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,8 f.p. (2023-yilning yanvar-martida– 0,6 f.p.), sanoat tarmog‘i–1,1 f.p. (2023-yilning yanvar-martida–0,6 f.p.), qurilish tarmog‘i–0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2023-yilda–1,4 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023-yilning yanvar-martida–0,1 f.p.)ga ko‘paydi.


**2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘shishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 118,5 % va sanoatda–113,1 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida  
kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 10 385,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-mart oylarida–8 416,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,2 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida–67,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

